



**“AL-MUFASSAL FI-N-NAHV” KITOBI MANBA BO‘LIB XIZMAT
QILGAN ASARLAR**

Hadis ilmi maktabi “Islom ilmlari”

kafedrasi mudiri

G‘aniyev Akmaljon Adxamjon o‘g‘li

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mahmud Zamaxshariyning “Al-Mufassal fi-n-nahv” asarining butun jahon ilmiy faoliyatiga va o‘zidan keyingi arab tili sohasiga qo‘shtgan hissasi, unga yozilgan sharhlar, nazm va muxtasar asarlar haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Andalusiya, sharh, muxtasar, nazm, Brokkelen, lingvestika, tilshunoslik

Mahmud Zamaxshariy “Al-Mufassal fi-n-nahv” kitobini hijriy 513-515-yillar oralig‘ida yozgan bo‘lsa, yozilganidan beri uni ulamolar katta e’tibor bilan o‘rganib, boshqalarga ham o‘rgatib kelishgan. U yanada kengroq hajmda o‘rganilishi uchun unga sharhlar, hoshiyalar va ta’liqotlar bitishgan.

Bu kitob Shom shahrining sultonı Iso ibn Muhammad Abu Bakr ibn Ayyub (576-624-yillar hij) davrida mashhur bo‘ldi. Podshohning o‘zi ham nahv fani va uning ahlini qattiq yaxshi ko‘rgani uchun uni “Nahvshunoslarning podshohi” deb ham atash mumkin. U Zayd Kindiyning qo‘lida Sibavayhning “Kitob”idan tahsil olgan. Sibavayhning kitobiga yozilgan Siyrofiyning katta hajmli sharhini mukammal o‘rgangan. Nahvga qattiq mehr qo‘ygan va uni zavq bilan o‘rganuvchi inson, albatta, o‘sha davrda eng mukammal yozilgan asarlardan biri “Al-Mufassal” Al-Mufassal fi-n-nahv” asarini o‘rganib, unga qattiq muhabbat qo‘yadi. Bu asarni boshqalar ham o‘rganishi uchun uni yod olgan odamga 100 dinor va bosh oyoq sarpo va’da qilgan. Shundan so‘ng odamlar uni yodlash, nazmga solish va sharplashda musobaqalasha boshladilar. Yettinchi hijriy sananing o‘zidayoq, yod



olgan va nazmga solganlardan tashqari Shom ahli va unga safar qilgan 25 dan ziyod nahv olimlari bu kitobga sharh bitganlar.¹

“Al-Mufassal” hijriy yettinchi asrda talabalar uchun darslik sifatida ta’yinlanib, madrasalarda o’rgatilinadigan kitoblarning ichida eng mashhurlaridan hisoblanardi. Yettinchi va sakkizinchi hijriy asrlarda Shom, Misr, Iroq, Hijoz va Yaman kabi katta ilm markazlarida nahv halqalarida darslik sifatida foydalilaniladigan asosiy kitob hisoblangan. Uning shuhrati hatto Andalusiyagacha yetib borgan. “Al-Mufassal”ga sharh yozgan Andalusliklardan biri shunday deydi:

“Men zamonamiz ahlining “Al-Mufassal”ni o’rganishga qattiq sho‘ng‘iganlarini ko‘rib, uning rijollaridan biriga aylandim.”

Ilmuddin Saxoviy kitob haqida shunday deydi:

“Muxtasar va aniq uslubda yozilgan kitoblarning eng foydalisi, bu “Al-Mufassal” kitobidir.”

Mahmud Zamashariy zamonidan keyingi nahv olimlarining kitoblarida “Al-Mufassal”ni ta’sirini yaqqol sezishimiz mumkin. Masalan Ibn Hojib (hij 570-646) nahvni tolibi ilmlarga oson qilishga rag‘bat qilgan. “Al-Mufassal”ga qattiq e’tiborini qaratib, uni qisqartirib, unga “Al-Kofiya” deb nom qo‘yan. Bu kitobini boblashda Mahmud Zamashariy “AL-Mufassal”ning tartiblashdagi usubiga yurib, uni to‘rt qismga taqsimlagan: 1-Ismlar, 2-Fe’llar, 3-Harflar 4-Mushtarak holatlar.

Lekin Ibn Hojib kitobni rosa qisqa holatga keltirgan. Qisqartirishda, qoidalarnigina yoritib berib, ulamolar ixtiloflari zikridan va ortiqcha so‘zlardan saqlanib, ma’lumotlarni tushunarli oson va yengil uslubda bayon qilishda Mahmud Zamashariyga ergashganini guvohi bo‘lamiz.

Mahmud Zamashariy va uning “al-Mufassal”i asaridan ta’sirlangan mashhur olimlardan biri Ibn Hishom Ansoriydir.

“Al-Mufassal fi-n-nahv” asarining sharhlari

¹ Sudrul Afozil Qosim ibn Husayn Xorazmiy. Sharhi-l-Mufassal fi Sona’tul e’rob al-mavsum bi-t-Taxmir. Abdurrahmon ibn Sulaymon tahqiqi ostida. 1-jild. – Makkai mukarrama.: Dorul g’arbil islomiy, 1990.– B. 43-44.



1. “Al-Mufassal” ga birinchi bo‘lib muallifning o‘zi sharh yozgan. Uni “Havashiy al-mufassal fi sonatul e’rob” (Arab tili grammatikasiga oid Mufassal asar hoshiyalari) deb nomlagan.

2. Keyinchalik u kishini shogirdlaridan:

- A) Roziyiddin Tobboxiy sharhi
- B) Tojul aimma Haddodiyning sharhi
- C) Abu Hanifaning sharhi
- D) Ya’qub Jundiyning sharhi

Bu to‘rt sharhning bugungi kunda mavjudligi noma’lum. Va mualliflari to‘g‘risida ham ma’lumat yetarli emas. Bu to‘rt olim haqida Isfarandiy “Muqtabis” deb nomlangan “al-Mufassal”ning sharhida aytib o’tgan. Va ularning barchalarni Mahmud Zamaxshariyning shogirdi deb ta’riflagan.

3. Faxriddin Roziy sharh yozib, uni “Al-Muharrar” deb nomlagan. Aytishlaricha bu kitob oxiriga yetmagan.

4. Muhammad ibn Said Marvaziy Diybojiyning “al-Muhassol” kitobi. U Mahmud Zamaxshariyning shogirdi bo‘lgan. Bu sharhning ikkita busxasi mavjud. Biri Dublindagi “Chester Beatty” kutubxonasida 3128 raqam ostida saqlanadi. AQSHda joylashgan Prinston universitetida 327 raqam ostida saqlanadi. Bu ikki nusxa saqlanadigan har ikki joyda ham Ukbariy degan olimga nisbat beriladi. Lekin taniqli nemis sharqshunosi Brokkelen men uni al-Marvaziya nisbat bergen. Va tadqiqotlarga ko‘ra shu nisbat to‘gridir.

5. Sharhi Burhoniddin Abdussaid Motruziy. Bu sharh hozirda topilmagan.

6. Yaman Ulamolaridan bo‘lmish Fazl ibn Abu Said Usfuriy. Bu sharh hozirda topilmagan.

7. Abulbaqo Ukbariyning sharhi. Mahshur sharqshunos Brokkelen “Mustarshad” nomli Hindistonda 1605-raqam ostida saqlanadigan kitobni unga nisbat beradi. “Al-Mufassal” asarining sharhlaridan biri bo‘lmish “At-Taxmir”



asari muhaqqiqi Abdurrahmon ibn Sulaymon bu kitobni Ubbariyga nisbat berish to‘gri emasligi aytib o‘tadi.²

8. Qosim ibn Husayn Xorazmiy “at-Taxmir” dan boshqa o‘rta hajmda yozilgan “al-Mujammaro” nomli sharhi borligi aytildi. Lekin u hozirda topilmagan.

9. Qosim ibn Husayn Xorazmiyning yana bir kichik hajmli “as-Sabiyya” nomli sharhi borligi aytilgan, lekin u ham hozirda topilmagan.

10. Ziyovuddin ibn Ajamiyning sharhi. Uning bir nusxasi Turkiyaning Istanbul shahrida joylashgan “Yeni jami” (yangi jome’) kutubxonasida 1102-raqam ostida saqlanadi.

11. Abdullatif Bog‘dodiyning “Sharhi avoili-l-Mufassal” nomli sharhi. Bu asar ham hozirda topilmagan.

12. Ibnu Xabboz Mavsiliyning sharhi. Muallif bu sharhini yozishga bir necha bor kirishadi lekin bu oxirigacha yakunlay olmaydi. Uning yana bir “Al-Misbah fi-l-jam’i bayna-l-Mufassal va al-iyzoh” nomli kitobi ham mavjud.

13. Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad Maqdisiyuning sharhi. Hozirda topilmagan.

14. Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad Shaririyning sharhi. Hozirda topilmagan.

15. Abul Husayn ibn Futuhning sharhi. Hozirda topilmagan.

16. Sharhi ibn Najjor Bog‘dodiyning sharhi. Hozirda topilmagan.

17. Jamoliddin Quftiyning sharhi. Hozirda topilmagan.

18. Jamoliddin ibn Amrun Halabiyning sharhi. Muallif bu asarni oxiriga yetkaza olmagan. Hozirda topilmagan.

19. Abuzzohir ibn Nashvonning sharhi. Hozirda topilmagan.

20. Hasan ibn Qosim Murodiyning sharhi. Hozirda topilmagan.

² Sudrul afozil Qosim ibn Husayn Xorazmiy. Sharhi-l-Mufassal fi Sona’tul e’rob al-mavsum bi-t-Taxmir. Abdurrahmon ibn Sulaymon tahlqi ostida. 1-jild. – Makkai mukarrama.: Dorul g’arbi-l-islomiy, 1990. – B. 48.



21. Shamsiddin ibn Soig‘ning “al-Majdul Muassal...” nomli sharhi borligi aytiladi. Lekin bu asar hozirda ma’lum emas.

22. Alamuddin Saxoviyning “Safaru-s-saada” nomli Mufassalning ma’lum bir fasllarining sharhi. Uni Muhammad Ahmad Doliy tahqiq qilib, 1995-yilda “Doru-s-Sodir” nashriyotida nashrdan chiqargan.

Bu asarning bir nusxasi Berlinda 7093- raqam ostida, Qohirada uning ikkita nusxasi: biri 3/566-raqam ostida, ikkinchisi 2/17-raqam ostida saqlanadi. Yana bir nusxasi Damashqda 3/339-raqam ostida saqlanadi.³

23. Abu Ali Shalubinning sharhi. Bu kitob aslida “al-Mufassal”ga yozilgan hoshiya va ta’liq hisoblanadi. Muallifning ba’zi shogirdlari bu kitobni “Havashi al-Mufassal” deb nomlashgan. Bu kitobda juda ko‘p olimlar: Ibn Molik, Abul Hayyon, al-Murodiy, Noziru-l-jaysh va Bog‘dodiylar o‘z asarlarida foydalangan. Uning ikkita nusxasi mavjud bo‘lib, ulardan biri Dublin shahrida joylashgan “Chester Beatty” kutubxonasida 5026-raqam ostida saqlanadi. Biri esa, “az-Zoviyat ul-Hamzoviya” kutubxonasida 1248-raqam ostida saqlanadi. Bu asarni Makkai Muakkarama shahrida joylashgan “Ummul Quro” universitetining arab tili fakultetida Hammod ibn Muhammad as-Sumoliy magistirlik bosqichida tahqiq qilgan.

24. Abdulvohid az-Zimlakoniyning sharhi. Bu sharh katta hajmda bo‘lib 4 jilddan iborat. Nomi “Al-Mufazzol a’la-l-Mufazzol fi diroyati-l-mufassal” bo‘lib, uni faqatgina ikkinchi juzi saqlanib qolgan. Hozirda u Ispaniyadagi mashhur “El-Eskorial” majmuasida 61raqam ostida saqlanadi.

25. Abdulvohid Zimlakoniyning yana bir sharhi bo‘lib, bu oldingi “Al-Mufazzol a’la-l-Mufazzol fi diroyati-l-mufassal” asarining qisqartmasi hisoblanadi. Bu haqida kitobning muqaddimaida ham to‘xtalib o‘tgan. Uni “G‘oyatu-l-muhassol fi sharhi-l-mufazzol” deb nomlagan. Turkiyadagi “Fazyulloh” kutubxonasida 2009 raqam ostida to‘liq holatda saqlanadi.

³ Karl Brokkelman. Tarixu-l-Adabu-l-arabiyy. 5-jild. – Qohira.: Dorul ma’orif, 1975. – B. 225.



26. Sharfuddin Mursiy Andalusiyning sharhi. Aytilishicha, muallif “al-Mufassal”ning 80 ta masalasini o‘z kitobida keltirib, uni zaif ekanligini bayon qilgan. Hozirda topilmagan.

27. Muhammad ibn Ali ibn Ya’ish (bu “al-Mufassal” ning mashhur sharhi sohibidan boshqa olim). U Yamanning katta olimlari biri bo‘lib, uning “At-Tahzib fi-n-nahv” asari sohibi. Bu asar Britaniya muzeyida 929-raqam astida saqlanadi. “Al-Mufassal”ga yozgan sharhi hozirda topilmagan.

28. Muzhiriddin Muhammadning “Al-Mukammal fi sharhi-l-Mufassal” asari. Bu asarning juda ko‘p nusxalari mavjud. Uzoq vaqt davomida bu asar tolibi ilmlar tomonidan o‘rganib kelinadi.

29. Mashhur nahvshunos olim ibn Molik “Alfiya” kitobi sohibi ham sharh yozgan. Bu sharh kichik risola shaklida bo‘lib, Damashqdagi “az-Zohiriyya” kutubxonasida 1593 raqam ostida saqlanadi. Ibn Molik “al-Mufassal”ni nazmga ham solgan. So‘ngra bu nazmni ham sharhlab, uni “Nasru-l-manzumi va fakku-l-maxtumi” deb nomlagan. Bu sharh ham hozirda mavjud bo‘lib, Berlinda 6630 raqam ostida saqlanadi.

30. Keyingi sharh sohibi Muhammad ibn Umar Xo‘jandiy Xorazmiy bo‘lib, u kishinig tarjimai hollari ma’lum emas. Musannif o‘z sharhini “Al-Iqlid” deb nomlagan.

31. Ali ibn Umar ibn al-Xolil Isfandariy Xorazmiy ham sharh yozib, uni “Al-Muqtabas” deb nomlagan. Bu sharhni yuqorida nomi zikr qilingan sharhlandan iqtibos olib unga qo‘srimcha malumotlar kiritgan holda yozgani uchun ham aynan shu nom bilan nomlagan. Uning hozirda 3 ta qo‘lyozma nusxasi mavjud. Biri “Jorulloh” kutubxonasida 138, 139 raqam ostida saqlanadi. Yana biri “Atif Afandi” kutubxonasida 2465 raqam ostida saqlanadi. Uchinchi nusxasi esa Najaf shahridagi “al-Hakim al-omma” kutubxonasida 213 raqam ostida saqlanadi.



32. Muhammad ibn Ali ibn Dehqon Nasafiy Kabandiyning sharhi bo‘lib, “Al-Maqolid” deb nomlanadi. Uning bir nusxasi “Az-Zohiriyya” kutubxonasida 1826 raqam ostida saqlanadi.

33. Abu-l-Maoliy Abdulvahhob al-Feruzobodiy “Al-Muhajjal” nomli sharh yozgan. Madinai Munavvarada joylashgan Shayxul islom “Orif hikmat” kutubxonasida 179 raqam ostida saqlanadi. Muallif bu kitobini Ibn Ya’ish, Ibn Hojib, Saxoviy, Andalusiy va yettinchi asr ulamolari tomonidan yozilgan sharhlarni qisqartirib bir kitob shaklida jamlagan. Lekin ulamolar bu kitobnni ixtisor qilib olgan kitoblarining barchasi mavjud bo‘lgani va hajmi kichik bo‘lgani uchun foydasi kam ekanligini aytadilar.

34. Husomiddin Sig‘nofiyning sharhi. Nomi “Al-Muvsil” bo‘lib, uning bir nusxasi “Salim og‘a” kutubxonasida 1167 raqam ostida saqlanadi. Ba’zi bir manbalarda bu kitobni Ilmuddin Andalusiyga nisbat beriladi. Bunga “Kashfuz zunun” asarida Al-Andalusiyning sharhini nomini “Al-Muvsil” nomi bilan keltirgani sabab bo‘lgan. Uning yana bir nusxasi “Shahid Ali” kutubxonasida 2484 raqam ostida saqlanadi.

35. Ahmad ibn Husayn ibn Yusuf Jorobardiyning sharhi bor bo‘lib, uning bir nusxasi “Dorul kutubil Misriyya”da 22 m nahv-raqami ostida saqlanadi. Muallifning Mahmud Zamaxshariyning “al-Kashshof” asariga hoshiyasi ham mavjud. Undan tashqari, ibn Hojibning “al-Mufassal”ga yozgan sharhi “al-Iyzoh” kitobiga hoshiya ham yozgan.

36. Yahyo ibn Hamza Alaviyning sharhi. Uning bir necha nusxalari mavjud bo‘lib, uning bir nusxasi Berlinda 6525-raqam ostida saqlanadi.

37. Muhamamd ibn Hisom Hiraviyning “al-Mufaddol fi sharhi-l-Mufassal” nomli sharhi. Uning bir nusxasi “La lahu liy” kutubxonasida 3447-qaram ostida saqlanadi. Uning Makkai Mukarrama shahrida Mansur ibn Nosir tomonidan magistrlik bosqichida kitobning boshida to mafulun mutlaq (mutloq masdar) qismigacha tahqiq qilinib o‘rganilgan.



38. Muhammad ibn Ali ibn Hatil Yamaniyning sharhi. Bu asarning bir nechta nusxalari mavjud. Ulardan Britaniya muzeyida saqlanadigan bir nusxani Ahmad ibn Yahyo Murtozoga nisbati beriladi (bu olimning zikri quyida keladi). Bu sharh “At-Tojul mukallal bijavohirul adab ala kitabi-l-Mufassal fi son’atil e’rob” bo‘lib, juda foydali sharhlardan biri hisoblanadi.⁴

39. Ahmad ibn Yahyo Murtazoning “Al-Mukallal bi faroidi maani-l-Mufassal” nomli shahri. Muhammad ibn Saud Universitetida 2614-raqam ostida qo‘lyozma nusxasi saqlanadi.⁵

Yuqorida nomi zikr qilingan sharhlaridan tashqari ko‘plab sharhlar yozilgan. Bu esa asar ulamolarning e’tibor markazida bo‘lgan naqadar qimmatli manba ekaniga dalolat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Malika Nosirova. Mahmud Zamaxshariyning “Al-Unmuzaj fi-n-nahv” risolasi. – T.: ToshDShU nashriyoti, 2005. – B. 188.
2. Abulbaqo Ya’ish ibn Ya’ish. Sharhu-l-Mufassal li-z-Zamaxshariy. Imil Bade’ Ya’qub tahqiqi ostida. 1-jild. – Bayrut.: Doru-l-kutubu-l-ilmiyya, 2001. – B. 462.
3. Karl Brokkelman. Tarixu-l-Adabu-l-arabiy. 5-jild. – Qohira.: Dorul ma’orif, 1975. – B. 392.
4. Ibn Xallikon. Vafayatu-l-A’yon va abnau abnau-z-zamon. 7-jild. – Bayrut.: Dorus Sodir, 2003. – B. 383.
5. Sudrul afozil Qosim ibn Husayn Xorazmiy. Sharhi-l-Mufassal fi Sona’tul e’rob al-mavsum bi-t-Taxmir. Abdurrahmon ibn Sulaymon tahqiqi ostida. 1-jild. – Makkai mukarrama.: Dorul g’arbi-l-islomiy, 1990. – B. 582.

⁴ Sudrul afozil Qosim ibn Husayn Xorazmiy. Sharhi-l-Mufassal fi Sona’tul e’rob al-mavsum bi-t-Taxmir. Abdurrahmon ibn Sulaymon tahqiqi ostida. 1-jild. – Makkai mukarrama.: Dorul g’arbi-l-islomiy, 1990.– B. 47-55.

⁵ https://archive.org/details/2614_20210224/mode/1up.